

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 126 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN YOSHLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASHNING NAZARIY- USLUBIY JIHATLARI

Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishi, uning aholi bandligini ta'minlashdagi roli va ahamiyatiga bag'ishlangan ilmiy manbalar o'rganilgan, yoshlar tadbirkorligini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirishning dolzarb muammolari aniqlangan, shuningdek, mehnat bozorida uzoq muddatli tendensiyalarni aniqlash borasida nufuzli xalqaro tashkilotlar va analitik markazlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar va prognozlarni o'rganish orqali yoshlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimining alohida elementlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar tadbirkorligi, kreditlash, imtiyoz, stratap, biznes tashabbus, ko'nikma, moliyaviy savodxonlik, mehnat bozori, yoshlar bandligi.

Abstract: This article examines scientific sources on the economic development of small business and entrepreneurship, its role and importance in ensuring employment, identifies current problems of medium- and long-term development of youth entrepreneurship, and is prepared by reputable international organizations. and analytical centers for determining long-term trends in the labor market by studying reports and forecasts, suggestions and recommendations have been made to improve certain elements of the system for the formation of entrepreneurial skills among young people.

Key words: youth public policy, youth entrepreneurship, lending, benefits, stratap, business initiative, skills, financial literacy, labor market, youth employment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научные источники по вопросам экономического развития малого бизнеса и предпринимательства, его роли и значения в обеспечении занятости населения, выявляются актуальные проблемы средне- и долгосрочного развития молодежного предпринимательства, а также готовятся авторитетными международными организациями. и аналитическими центрами по определению долгосрочных тенденций на рынке труда путем изучения отчетов и прогнозов, внесены предложения и рекомендации по совершенствованию отдельных элементов системы формирования предпринимательских навыков у молодежи.

Ключевые слова: молодежная государственная политика, молодежное предпринимательство, кредитование, льготы, stratap, бизнес-инициатива, навыки, финансовая грамотность, рынок труда, занятость молодежи.

KIRISH

Mamlakatimiz aholisining farovon turmush darajasini ta'minlash, uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish hamda jahonning innovatsion jihatdan taraqqiy etgan ilg'or davlatlar qatoriga kirish kabi uzoq muddatga mo'jallangan strategik vazifalar ko'lamining kengligi, ayni paytda iqtisodiy, ijtimoiy va ta'lim sohasidagi tizimli muammolarning saqlanib qolayotganligi yoshlarga doir davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirilishini mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning muhim shartlaridan biriga aylanishiga olib keldi.

Yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi yoshlarga oir davlat siyosatining uzviy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, yosh avlodning hayot sifati holatining yaxshilanishi va mamlakatni rivojlantirish darajasi o'rtasidagi chambarchas bog'liqliqni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar tizimini yaratish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda tadbirkorlikni boshlash niyatida bo'lgan yoshlar uchun Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida imtiyozli kredit mablag'laridan foydalanish imkoniyati yanada kengaytirilib, Markaziy bankning asosiy stavkasi doirasida 3 yilgacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga imtiyozli kreditlar olishlari mumkin.



Mazkur tizimni yanada rivojlantirish maqsadida, fikrimizcha, birinchi navbatda yoshlar tadbirkorligini kompleks rivojlantirish va ularning tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy jihatlarini tadqiq etishni orqali ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar majmusini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy manbalarda iqtisodiy rivojlanishda yirik hamda kichik biznesning roli va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan ilmiy manbalarda fundamental masalalar bo'yicha (xususan, firmalarning hajmi va innovatsiyalarga moyilligi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning mavjudligi) yagona yondashuv ishlab chiqilmagan.

Kichik va tadbirkorlik faoliyatini tadqiq etish sohasining yetakchi olimlarida Y.Lernerning ta'kidlashicha, "firmaning hajmi va uning innovatsionligi o'rtasida bir xildagi chastota bilan ham ijobiy va ham salbiy aloqadorlik holatlari mavjud. Firma hajmi va uning innovatsionligi o'rtasida ijobiy aloqadorligi aniqlangan paytida olingan natijalarning iqtisodiy samaradorligi ahamiyatli hisoblanmaydi"¹.

V.Koen, R.Levin, D.Moveri tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar firma hajmi ilmiy tadqiqotlar intensivligiga ta'sir juda kichik, statistik jihatdan ahamiyatsiz ta'sir o'tkazishini; biznes birliklar va firmalar hajmi va ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar intensivligi variatsiyasining bir foizidan kamrog'ini izohlab berishi mumkinligi; ushbu ko'rsatkichdagi variativ o'zgarishlarning yarmidan ko'prog'ini tarmoq samarasi ta'minlash berishidan dalolat beradi².

Taniqli amerikalik olim D.Byorchning "Ish o'rinlarini yaratish jarayoni" deb nomlanuvi ilmiy ishida AQSHda yangi ish o'rinlarining asosiy qismi kichik biznes sohasida yaratilganligini qayd etgan. Olim tomonidan Dun and Bradstreet kredit reytinglari ma'lumotlari bazasi asosida quyidagi asosiy xulosalar olingan:

1. AQSHda ish o'rinlarining deyarli 60 foizi 20 va undan kam xodimlarga ega bo'lgan firmalar tomonidan yaratilganligi, yirik kompaniyalar (xodimlar soni 500 dan ortiq) ning ulushi 15 foizdan oshmagan;
2. Kompaniyaning tashkil etilishi va bozordagi faoliyatining davomiyligi 4 yildan oshgandan so'ng, uning ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari keskin kamayib ketgan.

Amerikalik olimlar Armington va Odl tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kichik biznesning AQSH iqtisodiyotida ish o'rinlarini yaratishdagi salmog'i unchalik katta emasligi – barcha ish o'rinlarining deyarli 38 foizi 100 va undan kam xodimlarga ega bo'lgan kompaniyalar tomonidan yaratilishini aniqlashgan. D.Byorch, Armington va Odl tomonidan bir turdagi ma'lumotlar bazasidan foydalanishiga qaramasdan ikki xildagi natijaning olinishi, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlilni amalga oshirishdagi qo'llanilgan uslubiyotlar o'rtasidagi farqlanish bilan izohlanadi.

D.Byorch va qaysidir jihatdan Armington va Odl tomonidan olingan natijalar amerikalik olimlar J.Medof, Ch.Braun, J.Gamilton, britaniyalik olim D.Stori³, Xelsinki Texnologik universiteti xodimlari Ye.Autio, P.Arrenius va X.Vallenius, shvetsiyalik olimlar D.Xenrekson va M.Yoxanson⁴ tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda o'z isbotini topmagan.

D.Storining fikricha: ish o'rinlarini yaratishda kichik biznesning roli vaqt va makon kesimida kuchli farqlanish xususiyatiga ega; ish o'rinlarini yaratishda asosiy o'rinni tezkor rivojlanib borayotgan kichik biznes subyektlari (ularning jami kichik kompaniyalar sonidagi salmog'i

1 foizdan ortmaydi) egallaydi; kichik biznes subyektlarida bankrotlik holatlarining ko'plab kuzatilishi ish o'rinlarini yaratishdagi haqiqiy holatni aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Rus olimasi Ye.A.Polishuk o'zining "Yoshlar mehnati bozorini tartibga solish: nazariya, uslubiyat, amaliyot"

1 Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т "Высшая школа экономики", Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 464 с.

2 Cohen W., Levin R., Mowery D. Firm Size and R&D Intensity: A Re-Examination. The National Bureau of Economic Research. <http://www.nber.org/papers/w2205.pdf>.

3 Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т "Высшая школа экономики", Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 22, 79, 84 с.

4 Henrekson M., Johansson D. Gazelles as Job Creators - A Survey and Interpretation of the Evidence // Research Institute of industrial economics <http://www.ifn.se/Wfiles/wp/wp733.pdf>; Henrekson M., Johansson D. Institutional Effects on the Evolution of the Size Distribution of Firms // Social Science Research Network. http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=998290



nomli ilmiy tadqiqot ishida xususan o'rta maxsus va oliy ta'lim jarayonida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish borasida mavjud bo'lgan muammolarni quyidagicha guruhlab o'tgan⁵:

birinchidan, tayyorlangan mutaxassislarning tadbirkorlikning alohida olingan sohalarida faoliyat olib borish ko'nikmalarining mavjud emasligi;

ikkinchidan, o'rta maxsus va oliy ta'lim fan dasturlari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning mavjud emasligining o'rta maxsus yoki oliy (bakalavr yoki magistr darajasi-dagi) ma'lumotga ega yoshlarda tadbirkorlikning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga salbiy ta'sir o'tkazishi;

uchinchidan, mehnat bozorining joriy va uzoq muddatli talablarining e'tiborga olinmasligi mehnat bozorida muayyan disproporsiyalarni shakllantirishi bilan bir qatorda qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi.

ASOSIY QISM

YUNISEFning 2018-yil iyul oyida e'lon qilingan "Avlodlar-2030 O'zbekiston: demografik dividendlar olish uchun bolalar va yoshlarning rivojlanishini investitsiyalash davri"⁶ nomli tadqiqotida O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan quyidagi vazifalarning muvaffaqitli amalga oshirilishi bilan bog'likligi e'tirof etilgan:

1. Inson kapitalini rivojlantirish: sifatli ta'lim, professional ko'nikmalar, sog'liqni saqlash va ovqatlanish;
2. Iqtisodiy va texnologik rivojlanish: kelguvi avlod uchun ish o'rinlarini yaratish;
3. Ayollar va yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash.

PricewaterhouseCoopers International Limited (PwCIL) kompaniyasi tomonidan Xitoy, Germaniya, Hindiston, Buyuk Britaniya va AQSHning 10 029 (ulardan 8 459 kishi pensiya yoshiga yetmagan) nafar fuqarolari o'rtasida o'tkazilgan surovnomasida asosida ishlab chiqilgan "Mehnat bozorining kelajagi: 2030-yilda mehnat muhitini shakllantiruvchi tendensiyalar qarama-qarshiligi"⁷ nomli tadqiqotida keltirilishicha, bugungi kunda jamiyat va mehnat muhitini tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan beshta global trend shakllanib bormoqda:

1-tendensiya. Texnologik innovatsiyalarning keskin rivojlanishi. Avtomatlashtirish, robotlashtirish va sun'iy ong ish o'rinlari sifati va miqdorini ahamiyatli tarzda o'zgartirib yuboradi. Texnologiyalar, mehnat unumdorligi, hayotning davomiyligi va farovonligini oshirish, shaxsiy imkoniyatlarni ruyobga chiqarishga yordam beradi. Ayni paytda ijtimoiy barqarorlikga tahdid solishi, siyosiy va iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi, iqtisodiy ne'matlarning bir me'yorda taqsimlanmasligi xavfini kuchaytirishi mumkin.

2-tendensiya. Jahon aholisining joylashuvi, jinsiy tarkibi va sonining jiddiy o'zgarishi. Bir qator mintaqalar e'tiborga olinmasa, jahon aholisining sezilarli qismi qarib bormoqda va bu biznes, ijtimoiy institutlar va iqtisodiyotga jiddiy bosim o'tkazmoqda. Hayotning davomiyligi muddatining oshib borishi biznes modellar, xodimlarning kelajagi va pensiya ta'minotiga ta'sir o'tkazadi.

3-tendensiya. Urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi shaharlarda yashovchilar sonining oshib borishi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognoziga ko'ra 2030-yilga kelib shaharlarda 4,9 mlrd. kishi, 2050-yilda esa jahon aholisining 72 foizi shaharlarda istiqomat qiladi⁸. Bugungi kundayoq aksariyat qism yirik shaharlarda yaratilayotgan YAIM miqdori o'rtacha hajmdagi mamlakatlarning YAIMga nisbatan ko'proq ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zgarib borayotgan dunyoda ish joylarini shakllantirishda shaharlar hal qiluvchi omilga aylanadi.

4-tendensiya. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakat o'rtasida kuchlar joylashuidagi o'zgarishlar hisobiga global iqtisodiy transformatsiyalarning kuchayishi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, investitsiyalar samaradorligini ta'minlash, ta'lim tizimini takomillashtirish va mehnatga yaroqli aholi sonini oshirib borish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakatlar tezkor rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

5 Полищук Е.А. Регулирование рынка труда молодежи: теория, методология, практика. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора экономических наук. Орел-2018 г. 3-17стр.

6 www.unicef.org/publications - ma'lumotlari asosida tayёрланди.

7 www.pwc.ru/workforce2030 - ma'lumotlari asosida tayёрланди.

8 BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti ma'lumotlari asosida http://www.un.org/en/development/desa/population/publications/pdf/urbanization/WUP2011_Report.pdf



5-tendensiya. Resurslarning yetishmasligi va klimatik o'zgarishlar. Dastlabki prognozlariga ko'ra 2030-yilga kelib energiyaga bo'lgan talab 50 foizga, suvga bo'lgan talab 40 foizga oshadi. Ushbu talablarni qanoatlantirish uchun muqobil energiyani ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi resurslardan foydalanish kabi sohalarida yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining "Yoshlar bandligi sohasidagi inqiroz: harakatlar davri" deb nomlanuvchi dokladida⁹ keltirilgan muammolar ko'p jihatdan yuqorida keltirilgan vazifalar va tendensiyalarni o'ziga aks ettiradi. Dokladning o'ziga xos xususiyatlari sifatida yoshlarning bandlik darajasi oshirishda ish o'rinlarining sifati, yaratilayotgan imkoniyatlar, barqaror ijtimoiy himoyalash sharoitlarining yaratilishi, ish haqi to'lovlarining normal turmush darajasini olib borishga mosligi muammolarining olib chiqilishini keltirish mumkin. XMT ma'lumotlariga ko'ra, 52 mamlakatda olib borilgan o'rganishlar ish bilan ta'minlangan qambag'allar (kunlik daromadi 1,25 AQSH dollaridan kam bo'lgan) umumiy sonining 23.5 foizini yoshlar tashkil etgan.

Resurslarga yo'naltirilgan yondashuv doirasida tadbirkorlik daromadga erishish maqsadida amalga oshiriladigan inson faoliyati sohasi bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini xo'jalik jarayoniga aylantiruvchi transformatsion va transaksion jarayonlarning uzviyligini ta'minlash orqali cheklangan resurslarning optimal kombinatsiyasini izlab topish va amalga oshirishda o'z ifodasini topadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi davlatning tartibga solish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish borasidagi tadbirlarga bevosita bog'liq. Bunda davlat tomonidan tartibga olish tadbirlari tadbirkorning tashkiliy, informatsion va institutsional resurslariga (tadbirkorlik faoliyati subyekting ekzogen (tashqi) muhiti) ta'sir o'tkazsa, davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tadbirlari moddiy, inson va texnik resurslarga (tadbirkorlik faoliyati subyekting endogen (ichki) muhiti) bo'lgan talabni qanoatlantirishga xizmat qiladi. Klas-sifikatsiyalashning mazkur turi davlatning tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasidagi tadbirlarini transformatsion va transaksion resurslarni boshqarish nuqtai-nazaridan tarkiblash, shuningdek, mazkur resurslarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi hamda ustuvorligini aniqlash imkoniyatini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil asosida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish va ularda tegishli ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi asosiy xulosalarni qayd etish mumkin:

birinchidan, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy sharoiti va uni rivojlantirish strategiyasi doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish, uni innovatsion sohalariga yo'naltirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar yoshlar tadbirkorligi yo'nalishlarining o'rta va uzoq muddatdagi prognoz holatini aniqlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari mamlakat va uning alohida mintaqalari iqtisodiyotida yoshlar tadbirkorligining tutgan o'rnini oshirish bo'yicha dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi;

ikkinchidan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalarini tahlil etish va mazkur yo'nalishda qabul qilingan qarorlar tizimli xususiyatga ega bo'lishi zarur. Tizimlilik xususiyatlarining e'tiborga olinmasligi nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan ko'plab muammolarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun tizimlar nazariyasi, tizimli tahlil uslubiyoti kabi fan yo'nalishlari yosh tadbirkorlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga tegishli ta'lim tizimlarining o'quv dasturlari tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi;

uchinchidan, yoshlar tadbirkorligi subyektlarining endogen va ekzogen muhiti elementlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga tegishli masalalar faqat ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib qolmasdan, amaliy faoliyatni tashkil etish va olib borishda e'tibor qaratilishi birinchi darajadagi ahamiyat kasb etishi lozim. Bu yo'l bilan tadbirkorlik subyekting ichki va tashqi muhitidagi ko'plab muammolarni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi;

to'rtinchidan, xalqaro xamkorlikni rivojlantirish, biznes loyihalarni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlarda tashkil etilgan biznes inkubatorlarning texnologik imkoniyatidan imkon qadar keng ko'lamli foydalanish orqali innovatsion rivojlanish Strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini ta'minlash kerak. Bunda yoshlar tadbirkorligi rivojlantirishda xalqaro xamkorlikning tutgan o'rni va ahamiyatini baholash yo'nalishidagi nazariy va uslubiy ishlanmalar sof amaliy muammolarni hal etishga xizmat qilishi zaruligini alohida qayd etish mumkin.

9 www.ilo.org/publns - ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т "Высшая школа экономики", Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 464 с.
2. Cohen W., Levin R., Mowery D. Firm Size and R&D Intensity: A Re-Examination. The National Bureau of Economic Research. <http://www.nber.org/papers/w2205.pdf>.
3. Современные классики теории предпринимательства. Лауреаты Международной премии за вклад в исследования предпринимательства и малого бизнеса (1996–2010) / пер. с англ. под науч. ред. А.Ю. Чепуренко; предисл. и послесл. А.Ю. Чепуренко; Нац. исслед. ун-т "Высшая школа экономики", Науч.-учеб. лаб. исследований предпринимательства. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2013. – 22, 79, 84 с.
4. Henrekson M., Johansson D. Gazelles as Job Creators - A Survey and Interpretation of the Evidence // Research Institute of industrial economics <http://www.ifn.se/Wfiles/wp/wp733.pdf>; Henrekson M., Johansson D. Institutional Effects on the Evolution of the Size Distribution of Firms // Social Science Research Network. http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=998290
5. Полищук Е.А. Регулирование рынка труда молодежи: теория, методология, практика. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора экономических наук. Орел-2018 г. 3-17 стр.
6. www.unicef.org/publications - маълумотлари асосида тайёрланди.
7. www.pwc.ru/workforce2030 - маълумотлари асосида тайёрланди.
8. BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti ma'lumotlari asosida http://www.un.org/en/development/desa/population/publications/pdf/urbanization/WUP2011_Report.pdf
9. www.ilo.org/publns - маълумотлари асосида тайёрланган.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

